

MATNSHUNOSLIK, LAYLI VA MAJNUN QISSASI HAQIDA

Saydaliyeva Nasiba

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2 kurs magistranti

Annotatsiya: *Yaqin va O'rta Sharq xalqlari adabiyotida Layli va Majnun mavzusiday keng tarqalgan boshqa bir ishq qissasini topish qiyin. Mana 13 asrdirki, ushbu mavzuda adabiyot olamida she'r va dostonlar bitilib keladi. Ushbu Layli va Majnun haqidagi qissa arab xalqlari orasida keng tarqalgani va g'oyat mashhur bo'lgani haqida I.Yu. Krachkovskiy shunday fikr bildirgan: "Sharqdagi "Layli va Majnun" g'arbdagi "Romeo va Juletta"ga nisbatan mashhurroqdir". Mazkur maqola Layli va Majnun haqida rivoyatlar, ulardagi qahramon va voqealar tarixiyligi haqidagi ayrim qarashlar yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Majnun obrazi, I.Krachkovskiy, Layli obrazi, Nizomiy Ganjaviy, ays ibn Mulavvah, Qays ibn Muod, Al Johiz Abu Bakr Al Volibiy, tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat, genesis, salaflar.*

"Layli va Majnun" ko'p asrlik tarixga ega. Uning ildizlari, mashhur adabiyotshunos-matnshunos akademik I.Krachkovskiy ta'kidlaganidek, VII asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. "Layli va Majnun" nomi ostidagi sujet XII asrgacha arab xalq adabiyotida ertak shaklida namoyon bo'lgan. Keyinchalik bu mavzudagi asar Bobil (Iroq) adabiyotida nomi keltirib o'tilsa-da, lekin asar haqidagi ma'lumotlar saqlanmagan. Yozma shakldagi dostonlarning ko'pligi hamda asar g'oyasining yetukligidan dostonlar xususiyatini va kelib chiqish genezisini o'rganishga doir Yevropa adabiyotida XX asr o'rtalarida yaratilgan tadqiqotlar ham alohida yangilik sifatida vujudga keldi. Badiiy adabiyotda bu qissa doston shaklida ilk bor Nizomiy Ganjaviy tomonidan 1188-yilda vujudga keldi. Nizomiy xalq orasida tarqalgan rivoyatlardan ijodiy foydalangan holda "Layli va Majnun" qissasini g'oyaviy jihatdan mukammal va badiiy jihatdan yuksak asar darajasiga ko'tardi. Keyinchalik Nizomiy an'anasini davom ettirgan bir qancha, Sharq adabiyotida, salaflar paydo bo'ldi. Ushbu maqolada "Layli va Majnun" turkumidagi dostonlarning kelib chiqish tarixi, undagi obrazlarning tarixiy jihatlari, genezisi haqida mulohaza yuritiladi. Majnun obrazining tarixiyligi, u real hayotda mavjud inson bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar maqolada keltiriladi. Shuningdek, "Layli va Majnun" turkumidagi dostonlarni o'rgangan olimlarning ishlari ham tahlilga tortilgan.

Ba'zi manbaalarda kelishicha, Majnun tarixiy shaxs bo'lib, uning asl ismi manbaalarda Qays ibn Mulavvah, Mahdiy ibn Muod, Al Aqra va bazan Al Buxtariy ibn Al-Ja'd tarzida keltiriladi. Arab olimi ibn Qutaybaning "Kitob ush-she'r va -shuaro" asarida kelishicha Majnun o'z qabilasidagi Layli ismli qizni sevib unga bag'ishlab she'rlar to'qigan. Bundan tashqari Al Johiz Abu Bakr Al Volibiy va boshqa arab olimlarining kitoblarida Layli va Majnun haqida turli tuman rivoyatlar keltiriladi. Ammo yuqoridagi fikrni rad etuvchi qarashkarham bor. Jumladan, arab olimi Avon ibn Hoshim Al Qalbiy (764 yil vafot etgan), arab tarixchisi Hishom al Qalbiy (819 yil vafot etgan)lar Majnun tarixiy shaxs emas, unung nomi majoziy, sevgi hijron sherlari esa Umoviy honadoniga mansub bir oshiq yigit tomonidan bitilgan va nomini oshkor etmaslik uchun Majnun tahallusini qo'llagan

deyishadi. Shu tariqa VII asirning 2-yarimidan boshlab arab poeziyasida Majnun tahallusli mungli sherlar ko'paib keng tarqalib boradi. Vaqt o'tishi bilan ko'plab afsonalar, rivoyatlar to'qiladi va turli manbalardan joy ola boradi. Endi Majnun nomi arabistondagina emas, balki Yaqin va O'rta Sharq o'lkalarida ham keng shuhrat topadi. Mana shunday manbalar bora-bora yozma adabiyotga ham ko'chadi. Badiiy adabiyotda dastlab Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashrab Jomiy, Amir shayhim Suhayliy qalamiga mansub dostonlar yaratildi. Turkiy tilda esa Gulshahriy, Oshiq Posho, Shohidiy kabi shoirlar Layli va Majnun o'rtasidagi isg'q sarguzashtlari haqida o'z dostonlarida ayrim parchalar berdilarki, "bu parchalar Layli va Majnun afsonasining turkey tildagi dastlabki kurtaklari sifatida ahamiyatlidir"

1298/99 yillarda ulug' hind shoiri va mutafakkiri Amir Xisrav Dehlaviy "Majnun va Layli" dostonini yaratdi. Dehlaviy Nizomiy dostonining mazmuni va qurilishini deyarli saqlab qoldi. Ammo u dostonga bir qator o'zgarishlar kiritdi. Masalan, Majnunga Navfal qizining nikoh qilinishi, Layli va Majnuning sahroda hayvonlar himoyasida tunni o'tkazishi va boshqalar. "Layli va Majnun" dostonining tadrijiy takomilida Navoiy dostoni yangi bir adabiy hodisa bo'ldi. Navoiy arab rivoyatlari, Nizomiy va Dehlaviy dostonlari va Ashrafning bizgacha saqlanib qolmagan "Layli va Majnun"i bilan yaqindan tanish bo'lgan. Navoiy oldida ana shu mavjud manbalardan ijodiy foydalanish, shu bilan birga, o'z davri, uning ehtiyoju talablariga to'la javob bera oladigan yangi bir "Layli va Majnun" asarini yaratish vazifasi turar edi.

"Layli va Majnun" jahon adabiyotida sevgi haqida yaratilgan eng g'amgin qissalardan biridir. Biz, boshqa biron-bir sevgi asarining "Layli va Majnun"chalik fojiviy, sevishtanlar ma'naviy-ruhiy olamining chuqur va o'ta ta'sirli ochilganini bilmaymiz. Shuning uchun ham Alisher Navoiy o'z "Layli va Majnun"ining so'ngida quyidagi baytni keltirgan:

So'gin nechakim uzatdim oxir,
Yig'lay-yig'lay tugatdim oxir.

Layli va Majnun bayon etilgan asarlarda mavzu bir bo'lsa-da, matniy, voqealar bayoni jihatdan farqlar bo'lishi mumkin. Bunga sabab har bir ijodkor o'z davri ijtimoiy muhitidan kelib chiqib yondashishi hamda asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tish jarayonidagi o'zgarishlar hamdir.

«Layli va Majnun»ning boshlapish qismi bir necha an'anaviy boblar bilan boshlanadi. Sharq mumtoz adabiyotida aniq an'ana mavjuddir. Unga ko'ra har qanday asar Xudoning madhi— hamd, undan iltijo - munojot, Muhammad layg'ambar ta'rifi - na't kabi maxsus boblar bilan boshlanadi.

Navoiyning «Layli va Majnun» dostonining I bobi ham xuddi shu an'anaga muvofiq Xudo madhiga bag'ishlangandir. Unda shoir davrning buyuk so'z ustasi va faylasuf olimi sifatida olamning yaratilishi, tun, kun, oy, quyosh, yulduzlarning, bahor, kuz, qish fasllari va ulardagi tabiatning o'znga xos jilolari, insonning tabiat ichida yaratilishi, yo'qdan bor, bordan yo'q bo'lishi - bular hammasi Xudoning beqiyos qudrati va ulug'ligining ifodasi ekapini ta'kidlab, unga hamdu sanolar o'qiydi. U o'zining tajallisi bilan hammaning diliga zavq bag'ishlaydi. Navoiy yaratuvchinnmg «har ssridagi tajallisi jahonda Layli bo'lib

ko'rinadi, jilva qiladi, uning bu xususiyatn esa yaratilganlarni Majnun qilmokdir»,- deb yozadi:

Ey har sorikim, qilib tajalli,
Ul mazhar o'lub jahonda Layli.
Ey oniki Layli aylab otin,
Majnun qilmoq qilib sifotin.

Navoiy o'z davrining mukammal bilimli farzandi. Uni iloh ilmidan chetlab tasavvur qilish mumkin emas, albatta. Hozirgi yangicha fikrlash jarayonida shoir asarlarini uning ilohga, tasavvufga oid qarashlari bilan bog'liq holda o'rganishga e'tibor berilmoqda. (Qarang: N. Komilov va B. Eraliev. «Ishq otashining samapdari», Sharq yulduzi. 1991, 11). Jumladan, «Layli va Majnun» dostoni sof ilohiy sevgi asari sifatida tahlil etiladi. Vaholanki, Navoiyning buyukligi va mutafakkirligi shundaki, «Layli va Majnun»da garchi tasavvufga oid talqinlar bo'lsa-da, voqealar zahirida kishi qalbini larzaga soluvchi fojiviy-majoziy ishq qismati, ijtimoiy adolatsizlik tasviri shu qadar hayotiy tasvirlanganki, bundan shoirning o'zi ham qattiq iztirobga tushadi va «Yig'lay-yig'lay tugatdim oxir» deb qissaga yakun yasaydi. «Layli va Majnun» dostoni dunyoviy adabiyotning eng go'zal namunalaridan biri sanaladi.

Majnun - telba, devona, jinni demakdir. «Sharqdagi eng mashhur qahramonlardan. Qadimiy arab manbalarining shahodat berishicha, Majnun tarixiy shaxs bo'lib, Arabistondagi Bani Omir qabilasiga mansub bo'lgan. Majnunning oshiqlik qismati haqida Sharkda juda ko'p rivoyatlar to'qilgan. U Nizomiy, Dehlaviy, Navoiy kabi ulug' san'atkorlarning ijodida fojiviy qahramon sifatida o'rin egallagan». (Alisher Navoiy, mukammal asarlar to'plami. VII tom, 359-6). Xuddi shu fikrlar Layliga ham taalluqlidir. Layli arab manbalarida kichik epizod obraz - ko'rinishga ega bo'lgan. Ibn Qutayba o'zining «Kitob ush-she'r vash-shuaro» nomli asarida Layli haqida so'zlash Majnunni gapirtirish uchun asosiy kalit edi, degan muhim fikr bildiradi. Nizomiydan boshlab, bu fikr mahorat bilan rivojlantirildi va Layli dostonida mukammal, etuk, barkamol ayol obraziga - sevgi va vafo ramziga aylantirildi. Ayni vaqtda dostonida Navoiy Layli va Majnunlar obrazi orqali majozni oshiq-ma'shuqlar timsolini gavdalantirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Navoiy A. Layli va Majnun. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
2. Предисловие Е.Дунаевского к поэме Незами Гянцеви: Лейла и Меджнун, перевод А. Глоби, М., 1935.
3. Насир Хусрау. Сафар-наме. Книга путешествия. Перевод и вступительная статья Е.Э.Бертельса, Мос-Лен., 1933.
4. Игнатий Юлианович Крачковский. Избранные сочинения. Том II. Мос-Лен: Академии наук СССР, 1956.
- 15 Нарзуллаева С. Тема "Лейли и Меджнун" в истории литератур народов советского востока. - Ташкент: Фан, 1983. 10 бет.

16 Dilnavoz Yusupova. O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). T.: Tamaddun, 2016-y. 307

5. И. Ю. Крачковский. Ранняя история повести о Межнуне и Лейли в арабской литературе Избранные соч., М., 1956 г.

6. Е.Э.Бертельс. "Лейли и Межнун", история арабского предания, версия Низами и поэма Навои. - Т.: "Литература и искусство Узбекистана", 1940.

7. Маллаев Н. Узбек адабиёти тарихи. - Тошкент: Укитувчи, 1965.